

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**TAGAYEVA TAMARA BAXODIROVNA**

**U.S. MOEM IJODIDA INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY MUNOSABATLAR  
IFODALANISHINING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Tagayeva Tamara Baxodirovna**

U.S. Moem ijodida individual va ijtimoiy munosabatlar ifodalanishining  
lingvostilistik xususiyatlari..... 3

**Тагаева Тамара Баходировна**

Лингвостилистические особенности отражения индивидуальных и  
социальных взаимоотношений в творчестве У.С. Моэма ..... 27

**Tagaeva Tamara Bakhodirovna**

Linguostylistic peculiarities of expressing individual and social interrelations in  
W.S. Maugham’s works ..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**TAGAYEVA TAMARA BAXODIROVNA**

**U.S. MOEM IJODIDA INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY MUNOSABATLAR  
IFODALANISHINING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2218 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kiselyov Dmitriy Anatolyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Pardayeva Zulfiya Jurayevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «24» oktyabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (998978) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (62205-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «10» oktyabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil «10» oktyabr dagi №40 raqamli reyestr bayonnomasi)



**T.A. Bushuy**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunoslik va adabiyotshunosligida stilistik troplar, xususan, metafora uzoq vaqtdan beri mahalliy va xorijiy tilshunoslarning e'tiborini tortib kelmoqda va semantik, stilistik, psixolingvistik, sintaktik, pragmatik va kognitiv tadqiqotlar nazariyasida alohida o'rin egallaydi. So'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlarda metafora, ayniqsa, individual-muallif metaforalariga qiziqish ortib bormoqda. Bunga sabab ularning yangiligi, kutilmaganligi, yuqori ekspressivligi va voqelikni o'zgacha ifodalash qobiliyatiga egaligidir. Xususan, badiiy asarlar ma'lum bir tarixiy davrda muayyan lisoniy jamiyatda inson hayoti va turmushini badiiy tasvirlash bilan bir qatorda, xalqning til zaxirasi, ong va tafakkur tarzini borligicha ifodalab, millatning turmush sharoiti, o'tmishi, lingvomadaniyati va milliy mentaliteti hamda insonlar o'rtasidagi individual va ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Tobora jadallashib borayotgan zamonda kelajakka teran nigoh bilan qaraydigan komil avlodni tarbiyalashda, madaniyatlararo farqlarni to'liq o'rganishda, xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam diplomatik aloqalar o'rnatishda bunday munosabatlarning tadqiqi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida kognitologiya, narratologiya, matn genezisi, neyrolingvistika, olamning lisoniy va badiiy manzarasini tadqiq etish, yozuvchi onginini o'rganish muammolari kabi fanlarning zamonaviy yo'nalishlari doirasida keng ko'lamlil tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Metafora va metaforik jarayonlar bo'yicha mavjud tadqiqotlar va bu sohadagi yangi kuzatuvlarga qaramay, ayrim muammo va masalalar, xususan, metaforaning mohiyati uning yuzaga kelishi va to'g'ri talqin qilinishi nuqtai nazaridan yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa, metaforik modellarni kognitiv-diskursiv yondashuv nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Metaforalarning kognitiv lingvistik tahlili sohasidagi tadqiqotlarning aksariyati turli adabiy matnlardan ajratib olingan lingvistik metaforalar qanday qilib aktuallashtirilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kognitiv istiqbol alohida metaforik ifodalarni tahlil qilishdan ko'ra, matnlarda metaforik tafakkurning yanada kengroq modellarini izlashni talab qilmoqda. Ijodiy (yoki individual) metafora badiiy asar kontekstiga qay tarzda singdirilishi va butun asarga nisbatan qanday vazifani bajarishi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, balki, birinchi navbatda, ma'naviy sohani isloh qilish yo'lidan bordi. Qo'yilgan vazifalarning kafolati esa yosh mutaxassislarni, jahon standartlari bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalashdan iborat. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ".....zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan yoshlar mamlakatimizning yanada ravnaq topishida muhim o'rin tutadi"<sup>1</sup>. Shu jihatdan adabiyot barkamol insonni ma'naviy-axloqiy shakllantirish, uni jahon madaniyatiga oshno etish omillaridan biri hisoblanadi. Chet tillar va adabiyotlarni

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.. <https://uza.uz/ru/posts/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>

tadqiq etish xalqaro aloqalarni oʻrnatish va kengaytirish hamda oʻzbek madaniy modelini ommalashtirish, bir tomondan, jahon madaniyatining butun boyligini idrok etish, ikkinchi tomondan, zaruratga aylanmoqda. Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida sogʻlom pragmatizm nuqtai nazaridan, bir tomondan, xorijiy tadqiqotchilarni, ikkinchi tomondan, Oʻzbekiston uchun, xususan, oliy taʼlimning gumanitar fakultetlari uchun amaliy qiziqish uygʻotadigan masalalarga eʼtibor qaratish muhimdir. Aynan kognitiv adabiyotshunoslik metodlari ingliz-zabon mualliflarning oʻzga tildagi tafakkurini tushunishga, madaniyatlararo muloqotni oshirishga, yosh filologlarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2018-yil 5-fevraldagi PQ-3775-son “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Badiiy makonda metaforaning umumiy va xususiy muammolari bir qator olimlarning asarlari va dissertatsiyalarida koʻrib chiqilgan. Jumladan, [G.Lakof and M.Jonson 1980; M.Kormak 2002/2010; R.Gibs 2006a; U.Eko 1983; J.Lok 1689/1836; I.Richards 1936;M.Blak 1955, 1962, 1979/1993; R.Yakobson 1995; J.Lech[1981] 2007; J.Lech 2008; V.Maslova 2004; P.Riker 1978a] sohaning rivojiga oʻz hissalarini qoʻshishgan.

Tadqiqotchilarning boshqa bir guruhi zamonaviy fanlararo tadqiqotlar, metafora, uning tipologiyasi va tuzilishi bilan bogʻliq masalalarni tadqiq etgan. Xususan, [B.Teliya 1988; G.Lakof, M.Tuner 1989;E. Kormak 1990; R.Gibs 1994; M.Freeman 2000; S.Csabi 2000; El Refael 2001; U.Folkner, M.Tuner 2002; P.Simpson 2004; Praglejaz Group 2007; E.Semino 2008; R.Tsur (1992)2008; A.Ryabov 2009; P.Stokvell 2010; Z.Kovecses 2010;T. Popova, 2013] shular jumlasidandir.

Metaforik birliklarni kognitiv yoʻnalishda oʻrganish bilan bogʻliq masalalar oʻzbek tadqiqotchilarining ishlarida ham koʻrib chiqilgan [D.Ashurova 2003, 2018; A.Abduazizov 2007; U.Yusupov 2011;Sh.Safarov 2006; A.Tadjibayeva 2006; M.Galiyeva 2018;K. Normurodov 2020;D. Xudoyberganova 2015;J.Jusupov 2020].

Badiiy makonda metaforik tuzilmalarni kognitiv modellashtirish muammosi hozirgi vaqtda yetarlicha dolzarb va kam o'rganilgan, chunki kognitiv narratologiya va adabiyotshunoslikning nazariy asoslari shakllanish bosqichida turibdi. Metaforik tuzilmalarning kognitiv modellashtirilishi va ularning badiiy makonda ifodalanishi aniq individual-mualliflik, milliy-semantik va aksiologik xarakterga ega bo'lib, ularda mualliflik ongi va modallik yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ushbu tadqiqot bo'yicha nazariy va uslubiy bazani shakllantirish tadqiqot materiali nuqtai nazaridan ancha murakkab va keng ko'lamlı vazifa hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Badiiy matnning pragmatik va lingvokognitiv jihatlari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** S.Moem romanlari misolida uslubiy troplarni kognitiv modellashtirish va badiiy makonda reprezentatsiya qilish usullarini aniqlash, shuningdek, "tropik kompleks" vositasida muallifning o'z-o'zini ifodalashining kognitiv asoslarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

badiiy metaforani kognitiv adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tavsiflash, uni shakllantirish va talqin qilishning asosiy parametrlarini aniqlash hamda "tropik majmua"ni ijodiy tafakkurning o'ziga xosligini ochib berishga yordam beradigan muallifning o'z-o'zini ifodalash harakati sifatida o'rganish;

tropik blokning bir qismi bo'lgan metaforalar bilishning dominant elementi sifatida uni o'quvchi va muallif o'rtasidagi "muloqot" uchun kognitiv asosning muhim qismi etib tahlil qilish;

yozuvchiga stereotipik fikrlash doirasidan chiqishga va qahramonlarning psixologik holati bilan bog'liq bo'lgan noyob, yorqin "harakatchan portretlar" yaratishga imkon beradigan u yoki bu "tropik blok"ni kognitiv modellashtirishning asosiy motivatsiyasini aniqlash;

S. Moemning o'rganilayotgan asarlari organik matnlar bo'lib, ularda hikoya yoki romanni tashkil etuvchi tashkiliy tamoyillardan biri butun matn bo'ylab o'tadigan va turli xil "yakka" metaforalar seriyasida amalga oshiriladigan metaforik to'qilish ekanligini isbotlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida badiiy matnning uslubiy troplari (S.Moem asarlari misolida) tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** tropik majmuani kognitiv modellashtirish jarayonida ishtirok etuvchi vositalar, usullar va mexanizmlar (kognitiv metafora, o'xshatish va boshqalar) tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada lingvistik tadqiqotning umumiy va xususiy metodlari: kognitiv-diskursiv metod, kognitiv modellashtirish metodi, kontekstual tahlil, tavsiflash metodi, kognitiv-konseptual metod qo'llanilgan.

#### **Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

S.Moemning asarlarida personajlarning individual va ijtimoiy munosabatlarini tasvirlashda faollashgan metaforik tuzilmalariga kiritilgan fon

bilimlari qo‘shimcha ma‘nolar ifodalashi, stilistik vositalar qo‘llanilgan kontekstni tushunish orqali butun “obrazli tasavvur”ning chuqur ma‘nosini, yozuvchi assotsiatsiyalarini talqin qilishi, metafora qanchalik kutilmagan va original bo‘lsa, uning assotsiatsiyalari badiiy matnning obrazli mazmunini to‘ldirishi yoritilgan hamda matnni to‘liq tahlil qilish uchun metaforani kontekstdan va mantiqiy aloqalardan tashqarida ko‘rib chiqish imkonsiz ekanligi isbotlangan.

kognitiv metafora tushunchasi tafakkurning eng chuqur qatlamlariga, xususan, muallif uslubiga xos bo‘lgan stilistik troplar orqali yangi ma‘nolarning yaratilishi jarayonida ushbu yangi ma‘nolar qay tarzda konseptuallashtirilishi, yuzaga kelishi va dolzarblashuvi aniqlangan hamda yozuvchining kasbiy lisoniy shaxsi va voqelik hodisalarini aks ettirishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqligi, uning dunyo haqidagi bilimlar tizimi yoki “dunyo manzarasi”ni tasvirlashda muhimligi va turli tushunchalar, g‘oyalar, konseptlar, metaforik modellar, definitsiyalar, aforizmlar ishtirok etishi dalillangan;

S.Moem ijodida personajlarning olam manzarasini aks ettirish maqsadida turli ekspressiv va stilistik vositalar, jumladan, “troplar majmuasi”dan foydalanishi yozuvchiga stereotipik fikrlash doirasidan chiqib, personajlarning psixologik ahvolidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos yorqin “harakatchan portretlar” yaratish uchun qo‘llanilishi hamda S.Moem asarlaridagi stilistik troplar portret-taassurot yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligi, yangi ma‘nolarni hosil qilish jarayonida stilistik troplarning ko‘p funkcionalligi struktur-semantik va kognitiv aspektida aniqlangan;

S.Moem individual uslubining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, personajlarning individual va ijtimoiy munosabatlarini tasvirlashda semantik va assotsiativ markaz sifatida pretsedent nomlardan foydalanish zarurati, shu tariqa, matn faoliyatining kreativ va retseptiv apparatini ko‘p qirrali “tekshirish”, “qo‘shimcha aniqlash”, “ko‘rsatish” va “tahlil qilish” usullari asoslangan va muallifning o‘rganilayotgan asarlarida stilistik troplar badiiy obrazlarning an’anaviy va psixologik portretlarini yaratishga hissa qo‘shishi, kognitiv, nominativ, badiiy va ma‘no hosil qiluvchi funksiyalarni bajarishi isbotlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

badiiy asar sifatida qabul qilish obyektining estetik tarkibiy qismini hisobga olgan holda nasriy badiiy asarni obyektiv idrok etish mexanizmlari yaratilgan;

analitik o‘qish, XX asr ingliz adabiyoti tarixi, lingvostilistika va matnning stilistik tahlili mashg‘ulotlarida foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan nazariy xulosalar va badiiy matnlarni talqin qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

badiiy matnni narratologiya, lingvopoetika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, matn lingvistikasi va kognitiv adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish usullari taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** narratologiya, lingvopoetika, matn tilshunosligi, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ishlab chiqilgan ilmiy materiallarning sintezi, qo‘llanilgan tadqiqot usullari, asosiy ilmiy-nazariy qoidalar, tahlil qilingan materiallarning ko‘pligi, ushbu sohadagi oldingi tadqiqotlarning nazariy qoidalari tajribasi, shuningdek, dissertatsiya ishining

nazariy qoidalariga muvofiqligi bilan ta'minlanadi; xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kognitiv adabiyotshunoslikning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanishiga hissa qo'shishi bilan belgilanadi. Ishlab chiqilgan stilistik troplarni kognitiv tahlil qilish metodikasi universal xususiyatga ega bo'lib, undan boshqa badiiy hikoyalarni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin. Nazariy ma'lumotlar matn talqini, stilistika, kognitiv tilshunoslik resurslarini boyitadi.

Ishda qabul qilingan fanlararo yondashuv badiiy asarni imkon qadar keng kontekstda o'rganishning maqsadga muvofiqligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Tadqiqot materiallari va ishda keltirilgan xulosalar tahliliy va tanqidiy o'qish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Ulardan magistrlik dissertatsiyalarini yozishda, "Stilistika", "Kognitiv tilshunoslik", "Matn talqini" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, matn tahlili, kognitiv tilshunoslik bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishda, dissertatsiya ishlarini yozishda, shuningdek, ingliz tili va xorijiy adabiyot mutaxassislarning nazariy va amaliy bilimlarini boyitishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** U.S. Moem asarlarida shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni tasvirlovchi stilistik vositalarni tadqiq qilish asosida:

S.Moemning asarlarida personajlarning individual va ijtimoiy munosabatlarini tasvirlashda faollashgan metaforik tuzilmalariga kiritilgan fon bilimlari qo'shimcha ma'nolar ifodalashi, stilistik vositalar qo'llanilgan kontekstni tushunish orqali butun "obrazli tasavvur"ning chuqur ma'nosini, yozuvchi assotsiatsiyalarini talqin qilishi, metafora qanchalik kutilmagan va original bo'lsa, uning assotsiatsiyalari badiiy matnning obrazli mazmunini to'ldirishi yoritilgan hamda matnni to'liq tahlil qilish uchun metaforani kontekstdan va mantiqiy aloqalardan tashqarida ko'rib chiqish imkonsiz ekanligi isbotlangaligi natijalaridan AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan, Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "English Access Microscholarship Program" loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 25-iyundagi 1897/02-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiyadan olingan materiallar va tavsiyalar chet tili o'qituvchilarining lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini oshirishga xizmat qildi;

kognitiv metafora tushunchasi tafakkurning eng chuqur qatlamlariga, xususan, muallif uslubiga xos bo'lgan stilistik troplar orqali yangi ma'nolarning yaratilishi jarayonida ushbu yangi ma'nolar qay tarzda konseptuallashtirilishi, yuzaga kelishi va dolzarblashuvi aniqlangan hamda yozuvchining kasbiy lisoniy shaxsi va voqelik hodisalarini aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligi, uning dunyo haqidagi bilimlar tizimi yoki "dunyo manzarasi"ni tasvirlashda muhimligi va turli tushunchalar, g'oyalar, konseptlar, metaforik modellar, definitsiyalar, aforizmlar ishtirok etishi dalillanganligi haqidagi xulosalardan Malayziyaning Sulton Idris nomidagi Ta'lim Universiteti tomonidan

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan innovatsion tadqiqot loyihasida qoʻllanildi (2025-yil 19-iyundagi maʼlumotnomasi). Taqdim etilgan material oʻquv dasturlarini rivojlantirishga, amaliy tajriba olish uchun stajirovkalar tashkil etishga, asl badiiy matnlar va stilistik vositalarni koʻp tarmoqli tadqiqotlar kontekstida tahlil qilishga yordam berdi

S.Moem ijodida personajlarning olam manzarasini aks ettirish maqsadida turli ekspressiv va stilistik vositalar, jumladan, “troplar majmuasi”dan foydalanishi yozuvchiga stereotipik fikrlash doirasidan chiqib, personajlarning psixologik ahvolidan kelib chiqqan holda oʻziga xos yorqin “harakatchan portretlar” yaratish uchun qoʻllanilishi hamda S.Moem asarlaridagi stilistik troplar portret-taassurot yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligi, yangi maʼnolarni hosil qilish jarayonida stilistik troplarning koʻp funkcionalligi struktur-semantik va kognitiv aspektida aniqlanganligi haqidagi natijalardan I-203-4 raqamli Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy-maʼrifiy muassasalar nomoddiy milliy merosni rivojlantirish shoʻbasi tomonidan amalga oshirilgan “Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarning yanada rivojlanishi va uygʻunlashuvi” nomli fundamental loyiha doirasida joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 2025-yil 23-iyundagi 04-15-06-895-son maʼlumotnomasi). Natijada, badiiy matnni idrok etishning yangi kognitiv yondashuvi talabalar va oʻqituvchilarning tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasidagi bilim va koʻnikmalarini takomillashtirishga yordam berdi

S.Moem individual uslubining oʻziga xos xususiyatlari, jumladan, personajlarning individual va ijtimoiy munosabatlarini tasvirlashda semantik va assotsiativ markaz sifatida pretsedent nomlardan foydalanish zarurati, shu tariqa, matn faoliyatining kreativ va retseptiv apparatini koʻp qirrali “tekshirish”, “qoʻshimcha aniqlash”, “koʻrsatish” va “tahlil qilish” usullari asoslangan va muallifning oʻrganilayotgan asarlarida stilistik troplar badiiy obrazlarning anʼanaviy va psixologik portretlarini yaratishga hissa qoʻshishi, kognitiv, nominativ, badiiy va maʼno hosil qiluvchi funksiyalarni bajarishi isbotlanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining “Maxsus reportaj” koʻrsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2025- yil 11-iyul kunidagi 01-07/253-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, koʻrsatuv mazmun-mundarijasining ilmiy-ommabopligi taʼminlangan va ilmiy qarashlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 9 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda eʼlon qilingan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Metafora asosiy stilistik trop sifatida va uning badiiy asarning obrazli-estetik tarkibiy qismini yaratishdagi o'rni”** deb nomlangan birinchi bobida metaforani tadqiq etishning nazariy muammolari va istiqbollari, metaforaning evolyutsion yo'li: an'anaviy qarashdan yangicha qarashga o'tish, tarixiy istiqbolda metafora nazariyasining shakllanishi, metaforaga lingvistik qarashdan kognitiv qarashga o'tish, metafora badiiy asarning obrazli-estetik tarkibiy qismini yaratishda asosiy vositalardan biri ekanligi, shuningdek, S.Moemning ijodiy, metaforik tafakkuri va matn yaratish muammolari ko'rib chiqilgan.

Aristotel davridan boshlab “metafora” atamasi metonimiya va sinekdoxa kabi barcha troplarning asosi va nomi sifatida keng qo'llaniladi. U.Ekoning so'zlariga ko'ra, “metafora haqida gapirish, demak, ritorik faoliyat haqida uning butun murakkabligi bilan gapirish demakdir”<sup>2</sup>. Blek metaforalar muhim kognitiv funksiyani bajaradi, deb hisoblaydi, ammo u metaforalarning mahsuldorligi masalasiga ham to'xtalib o'tib, metaforalar kognitiv vosita sifatida voqelikning yangi jihatlarini yaratishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uning o'ziga xos kreativlik haqidagi tezisida metaforalar turli tushunchalar o'rtasida ilgari anglanmagan aloqalarni yaratishi mumkinligiga e'tibor qaratiladi<sup>3</sup>.

Metaforik gaplarda muayyan belgilar gapning bosh subyektiga tegishli bo'ladi<sup>4</sup>. Darhaqiqat, metafora ma'no (“aytilgan narsa”) va referensiya (“aytilgan narsa”) dixotomiyasini o'z ichiga oladi. So'zlar faqat potensial ma'nolarga (lug'at ma'nolariga) ega bo'lib, aktual ma'nolarni gaplarda, diskurs doirasida oladi. To'g'ri ma'nodan metaforik ma'noga o'tish so'zlar darajasida amalga oshsa-da, aynan so'zlar ma'lum kontekstlarda metaforik qo'llanishga yoki to'g'ri bo'lmagan va yangi ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Metaforik qo'llanish faqat kontekstga bog'liq, shuning uchun metafora “ma'noning kontekstual o'zgarishi”dir<sup>5</sup>.

---

<sup>2</sup>Eco U. The scandal of metaphor: Metaphorology and semiotics // Poetics Today, 1983. – № 4(2). – P.217.

<sup>3</sup> Black M. More about metaphor. In: A. Ortony, ed. Metaphor and thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – P. 37-38.

<sup>4</sup> Ricoeur P. Metaphor and the main problem of hermeneutics // New Literary History, 1974. – № 6(1). – P. 97.

<sup>5</sup> Ricoeur P. The rule of metaphor. – London: Routledge & Kegan Paul, 1978. – P.99.

Riker tasavvurni “o‘zlashtirish orqali yangi turdagi munosabatlarni ishlab chiqarish va ularni farqlarga qaramay ishlab chiqarish qobiliyati” deb hisoblaydi<sup>6</sup>. Bundan kelib chiqadiki, metafora ziyraklik tufayli dunyoni idrok etish usulini o‘zgartirishi mumkin. Metafora kabi lingvistik yaratishlar, umuman olganda, yangi olamlarni (mental makonlarni) yaratishga imkon beradi. Shunday qilib, kognitiv modellar singari mental makonlar ham fon bilimlariga tayanadi. Biroq, mental makonlar odamlar ongida tayyor tuzilmalar shaklida o‘rnatilmagan, balki ma’lumotlarni yaratish va idrok etish jarayonida yangidan paydo bo‘ladi.

1970-yillarda Ruven Sur kognitiv psixologiya va neyrologiya yordamida adabiy estetikani o‘rganishini ifodalash uchun “kognitiv poetika” iborasini iste’molga kiritdi<sup>7</sup>. Uning ishi “kognitiv burilish” deb nomlangan harakatning bir qismi bo‘lib, san’at, gumanitar va ijtimoiy fanlardagi lingvistik burilishdan voz kechib, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga urg‘u beradi. Metaforaning kognitiv nazariyasi, konseptual integratsiya va siljish nazariyasiga asoslangan tamoyillardan foydalanishdan tashqari, ko‘plab kognitiv poetik tadqiqotlarning asosiy tashkil etuvchi kuchi til ifodalanadi (tirik), aql va tanani ajratib bo‘lmaydi degan kognitiv tasdiqdir. Amaliyotda individual o‘qishdan tashqari, o‘quvchining shaxsiy tajribasi va ijtimoiy sharoitiga asoslangan birgalikdagi mutolaalar ham keng tarqalganligini shu bilan izohlash mumkin<sup>8</sup>.

Insonning konseptual tizimi adabiyotni talqin qilishda muhim rol o‘ynaydi. Yozuvchilarning konseptual tizimi ishini ifodalovchi badiiy matnlar lingvistik tadqiqot uchun yaxshi manba hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik, xususan, Lakoff<sup>9</sup> va Jonson hamda Lakoffva Turner<sup>10</sup> tomonidan taklif etilgan konseptual metaforalar tahlili konseptual vositalarning badiiy matndagi o‘rnini o‘rganishga yordam beradi. Bu sxema tafakkur jarayonlarini til orqali sistemali tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, yozuvchilar “metaforik fikrlashning yangi usullarini taklif qilishlari yoki oddiy asosiy metaforalarni kamroq avtomatik, g‘ayrioddiy tarzda ishlatishlari” mumkin<sup>11</sup>.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda ta’kidlash joizki, kognitiv fanda metafora inson ongi rivojlanishining muhim omili sifatida qabul qilinadi va metaforalarni to‘g‘ri talqin qilish mumkin bo‘lgan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega: 1) kognitiv metafora tizimli xususiyatga ega; 2) kognitiv metafora asl ma’nodan uzoqda joylashgan konseptlarni anglash imkonini beradi; 3) kognitiv metafora etalon vazifasini bajaruvchi boshqa konseptlarga tayangan holda bir konseptni anglash imkonini beradi. Aytilgan fikrni quyidagi chizmada ko‘rsatish lozim:

---

<sup>6</sup> O‘sha joyda. – P.148.


<sup>7</sup> Tsur R. *Toward a theory of cognitive poetics*. – Sussex Academic Press, 2008. – 683 p.

<sup>8</sup> Stockwell P. *Cognitive poetics*. In: P. C. Hogan, ed. *Cambridge encyclopedia of the language sciences*. – New York: Cambridge University Press, 2010. – P. 169-171.

<sup>9</sup> Lakoff G. and Johnson M. *Metaphors we live by*. – Chicago: University of Chicago, 1980. – 241 p.

<sup>10</sup> Lakoff G. and Turner M. *More than cool reason: A field guide to poetic metaphor*. – Chicago: University of Chicago Press, 1989 – 237 p.

<sup>11</sup> Lakoff G. and Turner M. *More than cool reason: A field guide to poetic metaphor*. – Chicago: University of Chicago Press, 1989 – P.51.



**1-rasm. Kognitiv metaforaning asosiy belgilari**

Kognitiv metaforaga asoslangan o‘xshatishlar bizga biror predmet yoki g‘oyani boshqa predmet yoki g‘oya nuqtai nazaridan ko‘rish imkonini beradi, bu esa bir sohada olingan bilim va tajribani boshqa sohadagi muammoni hal qilish uchun qo‘llash imkonini beradi. Metafora badiiy asarda obraz yaratish va chuqur ma‘nolarni ifodalash uchun qo‘llaniladigan muhim va kuchli vositadir. U murakkab g‘oyalar va his-tuyg‘ularni ochib berishga yordam beradi, mavhum tushunchalarni aniq, vizual seziladigan tasvirlarga aylantiradi. Metafora asarning estetik idrokini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, voqelik chegaralarini kengaytiradi va o‘quvchiga dunyoning yangi istiqbollari taqdim etadi.

Metafora badiiy asar yozuvchisining shaxsiy uslubining muhim qismidir. Shu bilan birga, metafora muallifning o‘zini qurshab turgan voqelik bilan sub‘ektiv aloqasini ifodalaydi va badiiy asardagi personajlarga xos xususiyat bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy metafora nutqni bezash vositasidir. Ushbu dissertatsiya ishida S.Moem qalamiga mansub badiiy metaforalar batafsil ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ular nafaqat tasodifiylik, yangilik va yuqori darajadagi ekspressivlik bilan ta‘riflanadi, balki yozuvchining o‘z tajribasini aks ettiruvchi va o‘xshatishning obrazlilik bilan qiziqarli bo‘lgan “tropik aql” sifatida muallifning fikrlash usulini belgilaydi.

Zamonaviy gumanitar antropologik paradigma matn tadqiqida badiiy asarda yaqqol namoyon bo‘ladigan muallif shaxsi, uning individualligi dominantini birinchi o‘ringa qo‘yadi. “Badiiy matn insonning ichki olamini va uning voqelikni individual ong darajasida idrok etish va aks ettirish qobiliyatlarini o‘rganish uchun o‘ziga xos ob‘ektdir”<sup>12</sup>. Filologiyadagi kamdan-kam uchraydigan yo‘nalishga, V.P.Belyaninning “Psixologik adabiyotshunoslik” kitobiga murojaat qilamiz: “matn muallif va o‘quvchining ichki dunyosining in‘ikosi sifatida”, unda muallifning shaxsiy xususiyatlarini matn orqali aniqlash tadqiqot vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, bu jarayonda har bir til elementi nafaqat lingvistik, balki psixologik qonuniyatlar bilan ham bog‘liq bo‘lib, turli matnlar ortida shaxsning turli xil psixologiyasi turadi: odamlarning psixologik turlarining xilma-xilligi

<sup>12</sup> Глазунова О.И. Логика метафорических преобразований. – СПб., 2000. – С. 44.

matnlarning xilma-xilligini keltirib chiqarad<sup>13</sup>. Shu asosda yozuvchi biografiyasining ahamiyati, matnning hissiy-mazmuniy dominantasi bo'yicha psixologik tipni modellashtirish imkoniyati haqida xulosa chiqarish mumkin.

N.L.Leydermanning "Yozuvchining ijodiy individualligi o'rganish obyekti sifatida" nomli maqolasida yozuvchi individualligini belgilovchi birinchi omil biografik tajribadir. S.Moem boy hayotiy tajribaga ega, uning tarjimai holini kabinet yozuvchisi emas, balki Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'ylab jasur sayohatchi, eng ekzotik orollarga sayohatlar tashkil etadi. Ko'p yillik tajriba, ko'plab qiziqarli odamlar bilan tanishish, g'aroyib hayotiy hikoyalar "Sharq hikoyalari" turkumini, manzaralarning ishonchliligini, qahramonlarning aynan Xitoy yoki Gonkongda bo'lishining geografik aniqligini belgilab berdi.

Yozuvchining ijodiy ongi muammosi ijodiy jarayon haqidagi fanning barcha sohaları vakillarini o'ylantiradi, bunda matn "inson tafakkurining birligi" ekanligi asosiy o'rin tutadi. Turli-tuman obyektiv voqelik S.Moem tomonidan nihoyatda topqirlik va yorqinlik bilan qayta yaratiladi, yozuvchi go'yo uchqunlar chiqaradi, ular o'quvchi fantaziyasi yoki assotsiatsiyasini qo'zg'atib, alanga oladi. Troplar yoki "tropik blok" personaj xarakterini yaratish uchun S.Moem nasrining ajralmas qismidir. Ta'kidlash joizki, S. Moem personajning boshqaning xatti-harakatlariga munosabatini metaforik tarzda ta'kidlaydi, bu esa birinchisining lingvostilistik o'ziga xos xususiyatidir. Qayd etish joizki, asarlar matni o'xshash sifatlashlar, o'xshatishlarga ham boy.

S. Moem asarlari haqidagi tanqidiy adabiyotlar ham salmoqli: tadqiqotchilar birinchi navbatda yozuvchining yuksak intellektual va madaniy salohiyatini ta'kidlaydilar. Madaniyat, adabiyot va falsafa, musiqa, antik tarixiy nomlar va vaziyatlarning turli sohalaridagi pretsedent nomlarning keng ro'yxatiga murojaat qilish ham ushbu bahoning adolatli ekanligini tasdiqlaydi, deb hisoblaymiz. Dastlabki "Of Human Bondage" romanidayoq yozuvchi "metaforik tafakkur"ning kengligini ko'rsatib, hatto o'tkinchi personajlar (Dikens qahramonlari bilan bog'liq kampirlar va Dome chizgan modellarni eslatuvchi bemorlardan tortib, ko'p darajali metaforik tuzilmalardagi murakkab assotsiatsiyalargacha), Filippning psixologik holatining muhim lahzalarida ijodiy fikrlash faoliyatini tavsiflovchi kognitiv metaforalar obrazlarini yaratadi.

Hajmi va intellektual-ilmiy ahamiyati jihatidan salmoqli "Metafora nazariyasi" (1990) maqolalar to'plami orqali "Metafora - fikrlashning zarur quroli" (Ortega-i-Gasset)<sup>14</sup>, "Metafora - kognitiv jarayon...", degan ta'kidlar "qizil ip" bo'lib o'tadi. (E. Makkormak)<sup>15</sup>.

S. Moem asarlari san'atning turli sohalarida (musiqa, rassomlik va adabiyot) to'plangan bilimlar va yozuvchining, hatto adabiy tanqidchining kasbiy bilimlarining moddiylashtirilgan yakuni va amalga oshirilishidir: "San'at asari bir qatlamdan ikkinchisiga o'tishdan iborat tuzilma emas, bu birinchi navbatda madaniyat sanoati tomonidan yaratilgan moddiylashtirilgan ongning

<sup>13</sup> Белянин В.П. Психологическое литературоведение. Текст как отражение внутренних миров автора и читателя: Монография. – Москва: Генезис, 2006. – С.4.

<sup>14</sup> Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 68-81.

<sup>15</sup> Мак Кормак Э. Когнитивная теория метафоры. – М., 1990. – С. 358-386.

kalkulyatsiyasidir”<sup>16</sup>. Ta’kidlash joizki, matn bilan bog’liq barcha tadqiqotlar mantiqan muallif ongi muammosiga borib taqaladi: “Muallif individualligi badiiy matnda muallif ongining namoyon bo’lishi, uning ma’naviy-axloqiy mezonlari darajasida ham, adabiy shakl, idiostil darajasida ham maksimal darajada seziladi”<sup>17</sup>. Yozuvchining individual ijodiy ishi o’quvchining estetik reaksiyasiga, uning “materialni taqdim etish” mahoratiga hissiy munosabatiga, qahramonning psixologik kechinmalari dunyosiga sho’ng’ishiga, xatti-harakatlar motivatsiyasining ishonchliligiga mo’ljallangan. S.Moemning hikoya qilish texnikasining o’ziga xos xususiyatini, hikoyachi sifatida yozuvchi Eshendenni (“The Moon and Sixpence”) jalb qilishini ta’kidlash kerak, bu esa matnda qahramonning aql-zakovati va lug’at boyligining aksi sifatida nafis “tropik majmua”ning mavjudligini sezilarli darajada oqlaydi. “Cakes and Ale or The Skeleton in the Cupboard” romanida yozuvchi Eshenden - voqealar ishtirokchisi, “The Razor’s Edge” romanida hikoyachi o’z ismini yashirmaydi - yozuvchi Moem.

Demak, badiiy metafora nafaqat kontekstga kirishga, balki uni bevosita yaratishga ham qodir. Metaforik qo’llanish faqat kontekstga bog’liq, shuning uchun metafora “ma’noning kontekstual o’zgarishi”dir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tropik majmua”ning faoliyat ko’rsatishi va uning portretlar yaratilishidagi o’rni (S.Moem asarlari asosida)** deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi fasli S.Moemning “Oy va chaqa” romanida qahramonlarning an’anaviy va psixologik portretini metaforik yaratishning o’ziga xos xususiyatlariga bag’ishlangan. Ushbu asardagi kognitiv metafora mustaqil ravishda va “tropik blok”ning bir qismi sifatida obrazli portret xarakteristikasini yaratish uchun ishlatiladi. I.N.Tyukova tomonidan ishlab chiqilgan “...funktsional va mazmun jihatidan bir yoki bir nechta fikrlar doirasida birlashtirilgan estetik jihatdan dolzarb bo’lgan troplar majmuini o’z ichiga olgan tartibga soluvchi tuzilma” nazariy tushunchasi S.Moemning ko’rsatilgan troplarini tahlil qilish uchun qo’llanilishi mumkin deb hisoblaymiz<sup>18</sup>. S.Moem ushbu romanida ikki turdagi metaforik portretlar: bir lahzali (ikkinchi darajali personajlar) va Striklendning vaqt oqimi va turli psixologik vaziyatlardagi “harakatchan” portretlari turkumini yaratadi.

S. Moem “tropik blok”ni metaforalar, o’xshatishlar va pretsedent nomlarga murojaat qilish orqali yaratadi, ularning assotsiativ funksiyalarini “ishga tushiradi” va “...metaforizatsiyaning barcha turlari inson tajribasining assotsiativ aloqalariga asoslanadi”, -deya ta’kidlaydi<sup>19</sup>.

Striklendning an’anaviy va psixologik portretlari turkumining murakkab shakllanishiga to’xtalib o’tamiz. S.Moem matnidagi “rassom yo’li” asosiy metaforasining “tayyorlanish” mexanizmini tahlil qilishda e’tibor qaratish mumkin bo’lgan birinchi narsa - bu yorqin qarama-qarshiliklardir. Romanning birinchi bobidayoq Striklendning o’limidan oldingi shon-shuhrati hissiy jihatdan yaratiladi:

<sup>16</sup> Адорно В.Т. Эстетическая теория. – Москва, 2001. – С.480.

<sup>17</sup> Валгина Н.С. Теория Текста: Учебное пособие. – Москва, 2003. – С.135.

<sup>18</sup> Тюкова И.Н. Коммуникативные универсалии и их лексическое воплощение в лирике Б.Л. Пастернака. Дисс ... канд. филол. наук. – Томск, 2005. – С.22.

<sup>19</sup> Телия В.Н. Вступительная статья // Метафора в языке и тексте. – Москва: Наука, 1988. – С. 4.

*“The incident of the legend become the hero’s surest passport to immortality”*<sup>20</sup>. S.Moem go‘yo Striklendning “badiiy doiralar”ga mansub qahramonlarning salbiy luqmalarini xor tomonidan idrok etilishini tayyorlaydi:

*“He’s a stockbroker. He’s very dull”*<sup>21</sup>.

Yorqin, hissiy “tropik blok”, bizning fikrimizcha, Striklendning keyingi assotsiativ tavsifining semantik asosidir. S. Moem og‘ir bemorning halokati va o‘limi jarayonini assotsiativ tarzda ta’kidlaydigan salbiy o‘xshatishni yaratadi:

*“... as a cancer may grow in the living tissues, till at last it took possession of his whole being...”*<sup>22</sup>. “Ijodkorlik instinkti” ijobiy tushuncha, ammo bu kontekstda S. Moem g‘azablangan odamning qiyofasiga nisbatan qo‘llaniladigan shunga o‘xshash ohang metaforasiga olib keladi:

*“Strickland had the directness of the fanatic and the ferocity of the apostle”*<sup>23</sup>. Ta’kidlash joizki, Striklendning oddiy inson sifatidagi portret tavsifidan uzoqlashtiruvchi darajalanish usuli “yerdan tashqaridagi mavjudot” qiyofasini yaratishga olib keladi.

S.Moem shunday vaziyatlarni yaratadiki, Eshenden qahramonni yaqin masofadan ko‘rib, Striklendning ko‘z va yuz ifodasini alohida e‘tibor bilan kuzatadi:

*“...but suggested rather the inhuman glee of the satur”*. Romanda ana shu “g‘ayritabiiy ibtido”, ya’ni “Satur and faun” qayta-qayta ta’kidlanadi.

Yuqorida aytilganlarning barchasini kognitiv metafora yaratish orqali hisoblaymiz, bunda muallif Striklendning psixologik portretini yaratish uchun o‘quvchini butun assotsiatsiyalar majmuasi bilan ishlashga majbur qiladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, bu jarayon bilan parallel ravishda Eshendening kasbiy va intellektual qiyofasi shakllanadi. Masalan, yozuvchi Striklendning noaniq, ishoralarga to‘la iqrorini professional nuqtai nazardan qabul qiladi, ya’ni *“It was like making one’s way through a mutilated manuscript”*<sup>24</sup> yoki uning ijodini Prometeyning azob-uqubatlariga qiyoslaydi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, agar o‘quvchi “Gorio ota” yoki “Yevgeniya Grande” qissasi sahifalarida yaqqol ko‘zga tashlanadigan qariyalar qiyofasini tasavvur qilmasa, assotsiatsiyalar unumli ishlamaydi. Assotsiativ aloqalar va kitobxonning Eshendenga tushunarli bo‘lgan bilimi ishlaydi:

*“...old fellows who might have stepped out of the pages of Honore de Balzac”*<sup>25</sup>.

Tadqiq etilayotgan S.Moem romanidagi metafora badiiy obrazlar va ularning an’anaviy hamda psixologik portretlarini yaratishga yordam beradi. U kognitiv, nominativ, badiiy va ma’no hosil qiluvchi funksiyalarni bajaradi. Metaforalarni va S.Moem tomonidan yaratilgan butun “tropik blok”ni kognitiv deb hisoblaymiz,

---

<sup>20</sup> Maugham S. «Of Human Bondage» <https://www.planetebook.com/free-ebooks/of-human-bondage.pdf>. P. 156.

<sup>21</sup> O‘sha joyda. P. 164.

<sup>22</sup> O‘sha joyda. – P. 191.

<sup>23</sup> O‘sha joyda. – P. 191.

<sup>24</sup> O‘sha joyda. – P. 209.

<sup>25</sup> Maugham S. The Moon and Sixpence // The Great Novels and Short Stories of Maugham. Introduction Copyright. – New York, 2014. – P. 184.

chunki ularni ma'lum vaziyatlar kontekstida tahlil qilish ma'no kognitsiyasining ijodiy aktidir.

Bobning ikkinchi faslida metafora "Cakes and Ale or The Skeleton in The Cupboard" romanida Rozi portretlarini yaratishda S.Moemning emotiv kompetensiyasini obyektivlashtirish usuli sifatida o'rganilgan. Ushbu tadqiqot doirasida Rozining idrok etish vaziyatlarida eng samarali namoyon bo'ladigan "tropik blok"ga murojaat qilamiz. Ma'lumki, S.Moem asarda xarakter rivojlanishi va mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyat, ya'ni mantiqan asoslangan muhitda xarakter namoyon bo'lishi muhimligini bir necha bor ta'kidlagan:

*"But I had long had in mind the character of Rosie. I had wanted for years to write about had to her, but the opportunity never presented itself, I could contrive no setting in which she found a place to suit her..."*<sup>26</sup>. Rozining jonli, to'laqonli xarakteri, "qattiqqo'l jamiyat" shartlarini tan olmaydigan tabiati, shubhasiz, zarur hissiy munosabatni talab qilardi. Avtobiografik qahramon romanda ana shunday "barometr" va "qabul qiluvchi, aks ettiruvchi tomon" bo'ladi:

*"The Philip Carey of the earlier book became the I of Cakes and Ale"*<sup>27</sup>. S. Moem Rozining go'zalligiga qahramonlarning munosabatini o'quvchining hissiy munosabati uchun asosiy usulga aylantirdi. S. Moem Rozining "harakatchan" portret- idrokini yaratish uchun ataylab butun "tropik kompleks"ning katta imkoniyatlariga va ba'zi "kalit" so'zlarning takrorlanishiga murojaat qiladi. Sho'x bola bilan taqqoslash hissiy jihatdan Rozining bevositaligi, samimiyligi, jonliligi, xarizmasi, beparvoligi bilan zarur assotsiatsiyalarni yaratadi, bu esa atrofdagilarni o'ziga jalb qiladi va Driffild uchun ijodiy muhit yaratadi. T.G. Popova shunday ta'kidlaydi: "Ko'pincha metafora "cho'zilgan o'xshatish", o'ziga xos yashirin o'xshatish sifatida talqin qilinadi. Boshqacha aytganda, metaforik jarayonda bir predmet, belgi, harakat boshqa bir belgi bilan qiyoslanadi..."<sup>28</sup>. "Bola" metaforasi majmuasi tobora kengayib boraveradi:

*"Mrs. Driffield gave me that childlike, mischievous smile of hers; she was perfectly at her ease"*<sup>29</sup>. Yozuvchi portret detallarini qo'shib, yuz ifodalarining harakatchanligini, tabassumini, quvnoqligini, Rozi xarakterini, uning yosh Eshendenni o'ziga torta boshlagan magnetizmini yaratadi:

*"She looked at me with those soft blue eyes of hers in which there was a child's playful naughtiness...She looked at me with kindly shining eyes smiling with her full red lips"*<sup>30</sup>. Tabassumning (at me) ajratib ko'rsatilgan adresliligi bu kontekstda Rozi va Eshenden romanining boshlanishi, ayol go'zalligining e'tirofi sifatida zarur. S. Moem rassom Xiler tomonidan yaratilgan Rozining portretini tomosha qilgandan so'ng, Eshendanning go'zalligini "kashf etishi"ni portretning o'ziga qo'shadi. Yozuvchining ta'kidlashicha, yuzning alohida detallari ayol go'zalligining etaloni emas, balki ranglar, uyg'unlik va g'ayrioddiy jonlilik zarur bo'lib, ular birgalikda hissiy Rozini yaratadi:

<sup>26</sup>Maugham W.S. «Cakes and Ale or The skeleton in the Cupboard». – Moscow Progress, 1980. – P. 23.

<sup>27</sup> O'sha joyda. P 24.

<sup>28</sup> Попова Т.Г., Саушева Е.В. Метафора как важнейший элемент когниции // Политическая лингвистика 2020, №1 (79). – С.69.

<sup>29</sup> Maugham W.S. «Cakes and Ale or The skeleton in the Cupboard». – Moscow Progress, 1980. – P. 83.

<sup>30</sup> Maugham W.S. «Cakes and Ale or The skeleton in the Cupboard». – Moscow Progress, 1980. – P. 66-67.

*“... but her eyes had the blue of cornflowers, and they smiled with her lips, very red and sensual, and her smile was the gayest, the most friendly, the sweetest thing I ever saw”*<sup>31</sup>.

S.Moem portret yaratuvchi doimiy epitetlarni bejiz qo‘llamagan, epitet metafora uchun tayyorgarlik bosqichi vazifasini bajargan. Obyektlar nomlarining takrorlanishi aniqlovchi va aniqlanuvchi obyekt semantikasining bog‘liqligiga va uning epitetiga asoslangan bo‘lib, u tavsiflanayotgan obyektga tegishli bo‘lgan tafsilotlar bilan aniq motivlangan.<sup>32</sup> Ro‘zi portretini yaratishda qo‘llanilgan doimiy epitetlar har bir yuz elementining ranglarini (qizil lablar, moviy ko‘zlar) anglatadi, bu rassom uchun badiiy obrazga aylantirish kerak bo‘lgan “qoralama, eskiz”dir. S.Moem ataylab kitobxonga Rozi Eshendanning idrokini bilish, so‘ngra rassomning professional bahosini his qilish imkonini beradi:

*“She had no color in her face; it was of a very pale brown except under the eyes where it was faintly blue. Her hair was pale gold...”*<sup>33</sup>. Ushbu portretni histuyg‘ularsiz, ammo turli darajadagi qimmatbaho buyumlar bilan bog‘liq bo‘lgan oltinning ustunligi aks etgan yuz bo‘yoqlarining tasdig‘i deb hisoblaymiz: *“the pearly beauty of her neck and bosom”*. S.Moem shunday kontekst yaratadiki, unda oshiq erkakning fikrlari va obrazning asosiy mohiyatini rangda ilg‘agan rassomning kasbiy g‘ururi hissiy jihatdan mos keladi:

*“She glowed, but palely, like the moon rather than the sun, or if it was like the sun it was like the sun in the white mist of dawn”*<sup>34</sup>. Bu “tropik majmua” Rozining avvalgi portret-idrok eskizlari bilan tayyorlangan. Rozining yakuniy tasvir-taassuroti S.Moemning metaforik ongi, uning “aql o‘yinlari”ning isboti bo‘lib, u o‘quvchini “oltin” metaforasini talqin qilishga majbur qiladi va uni “oltinlangan” epitetiga aylantiradi. Tadqiq etilayotgan S.Moem romanidagi metafora portret-taassurot yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, emotsional ta‘sir ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi; metaforaning maqsadi narsa yoki hodisani shunchaki nomlash emas, balki uning ekspressiv xususiyatini ifodalashdir. Metafora assotsiativ mexanizmni ham, nutqni talqin qilish va idrok etish obyektini ham ifodalaydi.

S. Moem asarda qahramon rivojlanishi va mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatning muhimligini, ya‘ni mantiqiy asoslangan muhitda xarakterni namoyon qilish, shuning uchun “takrorlash” tamoyilining muhimligini bir necha bor ta‘kidlagan.

Larri obrazi va portretini yaratish jarayonining tarkibiy qismlarini umumlashtirib, uning ma‘naviy izlanishlarini umumlashtiradigan bo‘lsak, yozuvchi uchun qahramonning tutqich bermasligini, uning kutilmaganda va uzoq vaqt yo‘q bo‘lib ketish qobiliyatini ta‘kidlash muhim edi, metaforik o‘xshatishni o‘ziga xos ohang va semantik kamerton deb qabul qilamiz:

*“... and then suddenly you have the feeling that he’s escaped you like a smoke ring that you try to catch in your hands”*<sup>35</sup>. Ushbu tropda o‘quvchi tomonidan

---

<sup>31</sup> O‘sha joyda. – P. 140.

<sup>32</sup> Маслова Ж.Н. Введение в когнитивную поэтику. Учебное пособие. – Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.– П. Державина, 2014. – 144 с.

<sup>33</sup> Maugham W. S. “Cakes and Ale or The skeleton in the Cupboard”. – Moscow Progress, 1980. – P. 140.

<sup>34</sup> O‘sha joyda. – P. 140.

<sup>35</sup> Maugham W.S. “Cakes and Ale or The skeleton in the Cupboard”. – Moscow Progress, 1980. – P. 83.

tasvirni idrok etish vektorlari sifatida “hissiyot va yozuvchi tasavvuri” yotadi. S.Moem Larrini (hikoyachidan tashqari) taqdir unga duch kelgan qahramonlarni idrok etishda ham obrazli tavsiflaydi. Model, soʻngra rassom Syuzanna Larridan begʻaraz yordami uchun minnatdor, uning oʻziga xosligini deyarli oʻxshash “nomoddiy” oʻxshatishlardan foydalangan holda taʼkidlaydi: farishta. Amerikalik aristokrat Izabella va fransuz “yarim dunyosi xonimlari” har jihatdan jamiyatning turli qatlamlariga mansub, ammo S. Moem Larrining tutqich bermasligini, vaziyatda “moddiy mavjudlik”ning yoʻqligini baholashda yakdillikka muhtoj:

